

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
**ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA**

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari .....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

**CHEGARA HUDUDLARIDAGI MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI  
INTEGRATSIYASINING NAZARIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ  
ТЕРРИТОРИЙ В ПРИГРАНИЧНЫЕ ЗОНЫ**

**THEORETICAL BASIS FOR THE INTEGRATION OF PROTECTED NATURAL AREAS  
INTO BORDER ZONES**

**Kosimov Dilshodbek Baxodirovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Sayyoramizda biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish hamda ekologik tarmoqlarni yaratishda transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o'ziga xos funksiyani bajaradi. Maqolada biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish hamda ulardan turli maqsadlarda samarali foydalanishning muhim shartlaridan biri sifatida transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning nazariy asoslari taxlil qilingan. Shuningdek, halqaro tashkilotlar tomonidan transchegaraviy resurslarni, ayniqsa, ularni muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida boshqarish g'oyasi ko'rib chiqilgan.*

**Аннотация**

*Трансграничные охраняемые природные территории играют уникальную роль в сохранении биологического и ландшафтного разнообразия и создании экологических сетей на нашей планете. В статье анализируются теоретические основы создания трансграничных охраняемых природных территорий как одного из важных условий сохранения биологического и ландшафтного разнообразия и их эффективного использования в различных целях. Международные организации также рассматривали идею управления трансграничными ресурсами, особенно охраняемыми природными территориями.*

**Abstract**

*Transboundary protected areas play a unique role in preserving biological and landscape diversity and creating ecological networks on our planet. The article analyzes the theoretical basis for the creation of transboundary protected natural areas as one of the important conditions for the conservation of biological and landscape diversity and their effective use for various purposes. Also, international organizations have also considered the idea of managing transboundary resources, especially as protected natural areas.*

**Kalit so'zlar:** EKONET, ekologik karkas, transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, «transchegaraviy hudud», «chegara hududi», qo'riqxonalar, milliy bog'lar, halqali tuzilmalar.

**Ключевые слова:** ЭКОНЕТ, экологический каркас, трансграничные охраняемые природные территории, «трансграничная территория», «приграничная зона», заповедники, национальные парки, кольцевые структуры.

**Key words:** ECONET, ecological networks, transboundary protected natural areas, "transboundary area", "border area", nature reserves, national parks, ring structures.

**KIRISH**

Butun dunyo miqyosida «Katta tezlashuv» atamasini olgan sayyoraviy o'zgarishlar, kishilik jamiyatiga juda ko'plab imkoniyat va afzalliklar eshigini ochib berish bilan birga, tabiat va undagi biologik va landshaft xilma-xillikni xavotirli darajadagi tezlikda yo'q bo'lib ketishiga ham sabab bo'lmoqda. Biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (TMETH), EKONET, ekologik tarmoqlar va ekologik karkaslarni tashkil etish bo'yicha konsepsiyalar amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan bir qancha mamlakatlarning chegara zonalarini qamrab olgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)larning transchegaraviy tizimini tashkil etish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, BMT tomonidan o'tkazilgan (Samarqand, 2024) "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risida"gi Konvensiyaga a'zo mamlakatlarning 14-konferensiyasida ham (COP-14) dunyo mamlakatlarning asosiy e'tibori ko'chib yuruvchi turlarni muhofazasini ta'minlash imkonini beruvchi METHlarning tizimini yaratishga qaratildi.

Keyingi yillarda dunyoning turli regionlaridagi qo'shni davlatlar o'rtasida ekologik tarmoqlar (EKONET) yaratilmoqda. Ikki yoki undan ortiq davlat chegaralarining tutashgan joylaridan hamkorlikda foydalanish bo'yicha transchegaraviy integratsiya va ularni tashkil etishning shakllari kengayib bormoqda. Masalan, dastlab madaniy va iqtisodiy hamkorlik, jumladan, savdo, sayyohlik

va transport xizmatlari bilan bog'liq faoliyat turlari rivojlantirilmoqda. Bugungi kunda esa, ekologik hamkorlik turlari ham faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, TMETHlarni tashkil etish va ularda turizm faoliyatini yo'lga qo'yish orqali tijoratlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqotning metodologik asosini qutblangan biosfera (B.B.Rodoman, 2002), halqali tuzilmalar (V.L.Martinov, 2002) va iqtisodiyotning hududiy tuzilmalari (P.Y.Baklanov, 2018) kabi bir qator konsepsiyalar tashkil etadi [3]. Ekologik karkas yaratish konsepsiyasini rivojlanishida B.B.Rodoman tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati ham kattadir. U nemis geografi V.Kristallening ishlariga tayanib, «qutblashgan landshaft» nazariyasini rivojlantirdi. Unga ko'ra, biologik xilma-xillikni va rekreatsion resurslarni saqlab qolishning universal mexanizmi sifatida makonda METHlar bilan urbanizatsiyalashgan hududlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish taklif etilgan [1, 7].

B.B.Rodomanning (2002) fikricha, o'sib borish xususiyatiga ega bo'lgan urbokomplekslar tabiiy landshaftlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi bilan birga ulardan to'liq ajrab qolmasligi ham kerak. Bu borada tadqiqotchilar, hududlarni tabaqalashtirilgan funksional zonalarga ajratish hamda «yashil yo'laklar»ni tashkil etish orqali METHlar o'rtasidagi bir-butunlikni ta'minlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. B.B.Rodomanning [7] qutblangan landshaft konsepsiyasiga asosan, uchta chegara hududining tutashgan qismida joylashgan METHlar rekreatsiya zonalari, qishloq xo'jaligi yerlari va boshqa yerdan foydalanish turlari bilan o'ralgan bo'lsa, hududiy tuzilmaning halqasimon shaklini ifodalaydi.

Ekotarmoqlarni yaratish bo'yicha loyihalarda noyob turlarning yashash joylarini muhofaza qilish va migratsiyasini ta'minlash maqsadida METHlarni yagona tizimiga birlashtirishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, unda asosan geoekologik vaziyat bilan bog'liq quyidagi uch jihatni bartaraf etish ko'zda tutilgan: ko'plab turlarning yashash areallaridagi qisqarishlarni oldini olish; tabiiy muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarning ortib borishini kamaytirish; yovvoyi tabiatning mavjudligi va bunday hududlar o'rtasidagi bir butunlikni izdan chiqishiga yo'l qo'ymaslik [1, 6]. Bu tadqiqotlarda tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanishning samaradorligini oshirishda ko'p mamlakatlarning chegara hududlarida TMETHlarni tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

So'nggi o'ttiz yillikda davlat chegaralari tutashgan joylarda atrof-muhitni boshqarish sohasidagi transchegaraviy integratsiya jarayoni ikki yoki undan ortiq davlatlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi METHlarning shakllanishiga olib keldi. O.Abdug'aniyevning (2023) fikricha, ikki yoki undan ortiq davlatlarning ma'muriy-hududiy birliklari (viloyat, provinsiya, avtonom hudud va boshq.) doirasidagi chegaraga tutash hududlarda joylashgan yer yoki suv kenglik(akvatoriya)larining BLXni, madaniy resurslarni muhofaza qilish, qo'llab quvvatlash hamda ulardan barqaror foydalanishda hamkorlik boshqaruviga ega bo'lgan hududlar-TMETHlar hisoblanadi.


Chegaraga tutash hudud-bu, bevosita qo'shni davlat chegarasiga tutashgan bir davlatga tegishli hudud bo'lsa, transchegaraviy hudud–qo'shni dalatlarning chegaraga tutash qismlarini bir–biridan ajratib turuvchi hamda bir biriga bog'lab turuvchi hududlar hisoblanadi. Chegaraga tutash hudud tushunchasining muhim shartlaridan biri, uni bir davlat chegarasiga mos kelishi hisoblanadi. Chegara zonalarida antropogen ta'sir va uni turlari nisbatan cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, landshaftlar antropogen ta'sirga kuchsiz berilgan bo'lib, biologik turlarning xilma–xilligi boshqa hududlarga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan. Lekin, chegara hududlarining bu boradagi ko'rsatkichlari turli qismlarida turlicha kuzatiladi. Transchegaraviy hududlardagi hamkor davlatlarning tarkibiga va chegara hududlarni tuzilishiga ko'ra TMETHlarni quyidagi shakllarga ajratish mumkin [3]:

– radial-halqali transchegaraviy zonalar - uch davlatning davlat chegaralari tutashgan joyida shakllanadi, ularning atributi radial-halqali (tushishga nisbatan) hududiy tuzilishga ega bo'ladi.

– simmetriyali transchegaraviy zonalar - ikki davlatning davlat chegaralari tutashgan joyida shakllanib, ikki tomonlama simmetriyaga ega bo'ladi. Ya'ni, davlat chegarasi chizig'iga nisbatan mos keladi (1-rasm).

Halqasimon shakl mahalliy darajadan mintaqaviy darajaga ko'tariladi va bu jarayon V.L.Martinov [4] konsepsiyasi asosida tavsiflanadi. Halqali tuzilmalarning tarkibiy elementlarini joylashuvi va funksiyasini hisobga olgan holda, V.L.Martinov [4] bir-biridan farq qiluvchi uchta zonalarga ajratgan. Halqali tuzilma barcha jarayonlar eng jadal sodir bo'lgan Markaziy faol zona (MFZ) hamda barcha faoliyat va jarayonlarni Radial (shulasimon) faol zona (RFZ) orqali qaytadan

taqsimlanadigan Chetki faol zona (CHFZ)lar bilan ifodalanadi (1-rasm). Halqali tuzilmalar konsepsiyasi orqali ekologik karkasni chegara hududining xususiyatidan kelib chiqib moslashtirish imkoniyati ko'rib chiqiladi. Bunday holatda uchta chegara hududiga tutashgan joylardagi METHlar xalqaro (biosfera) darajadagi hudud sifatida e'tirof etiladi va transchegaraviy hamkorlikning Markaziy faol zonasiga aylanadi. Bugungi kunda METHlar transchegaraviy ekologik karkaslarning shakllanishida asosiy yadrosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu tajribani shakllanishini to'rt bosqichga ajratish mumkin [3, 2].



1-rasm. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining asosiy bosqichlari [7].

Birinchi bosqichda tomonlar chegaraga tutash hududlarga transchegaraviy hudud maqomini berish yuzasidan mavjud muammolarni ko'rib chiqishlari va xalq etish bo'yicha ikki yoki uch tomonlama kelishuvga erishish talab etiladi. Chunki, chegaraga tutash hududlarda ekologik barqarorlikni saqlash va hamkorlikda foydalanishda har - bir davlatning manfaatlari (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik, tarixiy va boshq.) hisobga olinishi kerak. Shu bois, har bir ishtirokchining manfaatlarini optimal darajada qondirishga erishish zarurdir. Chegara tutashgan joylardan hamkorlikda foydalanish jarayonida salbiy sinergetik effekt kuzatiladi, bu ikki yoki uch mamlakatning tabiiy resurslarini transchegaraviy iqtisodiy boshqarish muammolarini yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Sinergetik ta'sir - bu o'zaro bog'liq bo'lgan ta'sirlar jamlanmasi bo'lib, integratsiya va bir-biriga bog'liq bo'lmagan jarayonlarni kuchli, izchil tizimga birlashtirish jarayonida manfaatdor tashkilotlarning biznes-jarayonlari samaradorligini oshirishda namoyon bo'ladigan natijadir. Sinergetik ta'sir universal kategoriya bo'lib, iqtisodiy manfaatdorlik ustun turadi. Mazkur muammolarni yechimi sifatida mamlakatlar o'zlarining chegara hududlarida METHlarni tashkil

etishga e'tibor qaratadilar. Ikki yoki uch davlatning chegara hududining tutashgan joyida METHlarni tashkil etish transchegaraviy ekologik hamkorlikni amalga oshirish bilan birga, tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini qondirilishi bilan ham bog'liqdir.

Ushbu bosqichda mamlakatlar o'zlarining METHlariga xalqaro maqom berishda quyidagi ustuvor manfaatlarni ko'zda tutishadi: noyob biologik xilma-xillikka ega bo'lgan hududlarni saqlab qolish; mamlakatning ichki hududlarini transchegaraviy salbiy tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun chegara hududlarida xalqaro bufer ekologik tuzilmalarni yaratish. Natijada, transchegaraviy METHlarga turli xalqaro maqomlar berilib, ish rejimi xalqaro dastur va konvensiyalarga tayangan holda olib boriladi. Chegara hududlarida xalqaro ekologik maqomga ega bo'lgan METHlarni tashkil etish, qo'shni davlat tomonning ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlarni olditni olishning eng qulay varianti bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda qo'shni tomon ham simmetrik harakatlar bilan javob berishi hamda o'ziga qarashli chegara hududlarida METHlarni tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir [3, 5].

Birinchi bosqichda chegara hududlaridagi METHlar bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan transchegaraviy o'zaro ta'sirga to'liq ega bo'lmaydi (1a-rasm). Demak, birinchi bosqich – chegara hududlarni ekologik manfaatlarga ko'ra ajratib qo'yish bosqichi bo'lib, xar ikki yoki uch tomonda bu jarayon kengayib yoki o'sib borish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Chegara zonalaridagi qo'riqlanadigan hududlarni transchegaraviy METH sifatida integratsiya bo'lish modeli ikkinchi bosqichda amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqich - transchegaraviy ekologik siyosat strategiyasini ishlab chiqish va qo'shni davlatlar o'rtasida amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Chegara chiziqclariga nisbatan simmetrik tarzda lokalizatsiya qilingan METHlar o'rtasida, axborot almashuvini yo'lga qo'yish va atrof-muhitning o'zgarishini monitoringini olib borish maqsadida ekologik yo'laklar shakllantiriladi (1b-rasm).

Ekologik yo'laklar orqali METHlar o'rtasidagi hududiy bog'liqlikni ta'minlanishi ular o'rtasidagi modda va energiya almashuvi jarayonini hamda biologik turlarning migratsiyasidagi "to'siq"lar bartaraf etiladi. Ekologik yo'laklarni faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali chegara zonasida bir-butunlik va yahlitlik ta'minlanadi. Natijada, ikki yoki undan ortiq chegara tutashgan hududlar ekologik hamkorlikning Markaziy faol zonasiga aylanib boradi. Aynan shu bosqichda ekologik aloqaga parallel ravishda ekologik transchegaraviy turizm ko'rinishidagi iqtisodiy hamkorlik strategiyasi paydo bo'ladi. Shu bois, bu bosqichda transchegaraviy ekologik va turizm aloqalarini o'rnatishga alohida e'tibor qaratish zarur (1b-rasm).

Uchinchi bosqichda tomonlarning takliflari asosida transchegaraviy ekologik yo'laklar kengaytirilib, yagona TMETH shakllantiriladi hamda iqtisodiy samaradorlik ortib boradi. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda qo'shni davlatlar o'zlarining barcha turdagi METHlarini ekologik yo'laklarini kengaytirish orqali transchegaraviy hamkorlik tizimiga jalb etishga harakat qilishadi. Mazkur yondashuvlar, METHlarda yagona monitoring tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini o'zida birlashtirilgan transchegaraviy ekologik karkaslarni shakllanishiga olib keladi (1c-rasm). METHlar chegaralarining tutashgan joyiga nisbatan chekkada joylashgan hududlar Chetki faol zona (CHFZ)larga aylanadi. Natijada, markaziy va chetki faol zonalar o'rtasida o'zaro transchegaraviy aloqalar yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchi bosqich - bu transchegaraviy radial-halqali ekologik karkaslarni tashkil qilish jarayonidir. Unda METHlardagi transchegaraviy o'zaro ta'sir va aloqalar halqa shaklida tashkil etilishi talab etiladi (1d-rasm). Natijada, RFZ va CHFZ darajalardagi ekologik yo'laklar bir-biri bilan «tutashgan» bo'ladi. Chegara hududlaridagi METHlarning optimal integratsiyasi to'rtinchi bosqichda to'liq yakunlanadi [3, 5].

Shu sababli, integratsiyaning dastlabki bosqichlaridan o'tayotgan METHlar mavjud tajribalardan o'z strategiyalarini belgilashda hisobga olishlari muhimdir. Transchegaraviy o'zaro ta'sir jarayonlari vaqt o'tishi bilan kuchayib yoki pasayib boradi. Bu integratsiya jarayonidagi to'rt bosqichli strategiyani ham o'zgartirishi mumkin. Masalan, bosqichlar tarkibi «ixchamlashishi», parallel ravishda davom etishi yoki «tushib qolishi» mumkin.

METHlarning transchegaraviy uch tomonlama ekologik integratsiya bo'yicha Kongo Demokratik Respublikasi, Uganda va Ruanda davlatlarining tajribalari bilan tanishishi maqsadga muvofiqdir. Bu uch davlat transchegaraviy biosfera rezervatini yaratish tashabbusi bilan chiqqan. Masalan, Kongo Demokratik Respublikasidagi Virunga milliy bog'i (Virunga National Park) Afrikada dastlab tashkil etilgan qo'riqxonalaridan biri hisoblanadi. Mazkur milliy bog' uch davlatning chegara hududining tutashgan joyida joylashgan bo'lib, Rvenzori tog'lari milliy bog'i (Uganda) va Vulkanlar milliy bog'i (Ruanda) bilan chegaradosh. Shunday qilib, Kongo Demokratik Respublikasi, Uganda

va Ruandadagi ushbu METHlarning transchegaraviy integratsiyalashuvi uchinchi bosqichda ekanligini ko'rish mumkin [3, 5].

### XULOSA

Bugungi kunda transchegaraviy radial-halqali ekologik karkas shakllantirish orqali mamlakatlarning transchegaraviy ekologik siyosatini samarali amalga oshirish mumkin. O'zbekiston Respublikasida ham chegara zonalarida METHlarni tashkil etish va ularni halqaro integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TMEHlarni tashkil etish orqali quyidagi biogeografik va iqtisodiy manfaatlarga erishish mumkin: bir necha METHlarni yagona tizimga birlashtirilishi ularning chidamliligini oshiradi va muhofaza qilish funksiyasining samarasi yuqori bo'ladi; ilmiy tadqiqotlarni hamkorlikda o'tkazilishi unga sarflanadigan harajatlarni qisqartirishga imkon beradi, ilmiy tadqiqot natijalarining ahamiyatini yanada orttiradi; MEHlaridan rekreatsiya va ekoturizm maqsadlarida hamkorlikda foydalanish orqali katta iqtisodiy samaradorlik erishish mumkin [1].

Natijada, chegaraga yaqin yoki tutash zonadagi milliy, mintaqaviy yoki mahalliy maqomga ega bo'lgan METHlar Chetki faol zonadan xalqaro darajadagi tajribalarni amalga oshiruvchi va tarqatuvchi Radial faol zonalariga aylanib boradi. Har bir chegara hududidagi METHlar uch sektorli radial-halqali tuzilma darajasida shakllanishi mumkin bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniev O.I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoeologik asoslari (Farg'ona vodiysi misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
2. Бакланов П.Я. Структурные особенности и потенциал развития приграничных и трансграничных районов: теоретические аспекты // Региональные исследования. 2018. № 3 (61). С. 19–24.
3. Биксалеев А.А., Новиков А.Н. Международные трансграничные трёхзвенные регионы: теоретическое обобщение опыта интеграции приграничных особо охраняемых природных территорий. Успехи современного естествознания № 12, 2021. С. 95-100.
4. Мартынов В.Л. Пространственная самоорганизация общества: взаимосвязи и взаимодействия: дис. ... докт. геогр. наук. Санкт-Петербург, 2002. 200 с.
5. Новиков А.Н. Трехзвенные трансграничные регионы: симметрия территориальной организации населения и хозяйства // Учёные записки Забайкальского государственного гуманитарно-педагогического университета имени Н.Г. Чернышевского. 2013. № 1 (48). С. 171–178.
6. Пономарев А.А., Байбаков Э.И., Рубцов В.А. Экологический каркас: анализ понятий // Ученые записки Казанского университета. Серия «Естественные науки». 2012. Т. 154. № 3. С. 228–238.
7. Родоман Б.Б. «Поляризованный ландшафт»: полвека спустя // Известия Российской академии наук. Серия географическая. 2002. № 3. С. 467–480.